

## MARKAZIY OSIYO DAVLAT RAHBARLARINING MASLAHAT UCHRASHUVLARI FORMATINING TARIXIY BOSQICHLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.015>

*Turobov Ma'ruf Bobonor o'g'li*

*Diplomat university, Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Markaziy Osiyo davlat rahbarlari maslahat uchrashuvlari formatining shakllanishi va evolyutsiyasi, uning mintaqaviy hamkorlikni institutsionalizatsiya qilishdagi roli hamda geosiyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda formatning har bir tarixiy bosqichi, erishilgan asosiy natijalar va mintaqaning “mintaqaviy subyektlilik” darajasini oshirishdagi strategik ta'siri ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Xususan, Ozarbayjonning to'la huquqli a'zo sifatida qo'shilishi bilan mintaqalararo hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi va transkontinental transport-logistika imkoniyatlarining kengayishi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Maslahat uchrashuvlari, mintaqaviy hamkorlik, institutsionalizatsiya, strategik ahamiyat, tarixiy bosqichlar, mintaqaviy subyektlilik.

**Kirish.** Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy joylashuvi va resurs salohiyati bilan global siyosatning muhim subyekti hisoblanadi. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formati mintaqaviy hamkorlikni tubdan yangilashga xizmat qiluvchi noyob mexanizmga aylandi. Ushbu formatning asosiy maqsadi – tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mintaqada davlatlari o'rtasida ochiq muloqot, o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlash orqali umumiy muammolarni hal etishdir. Tезisning dolzarbligi Maslahat uchrashuvlarining qisqa muddat ichida norasmiy muloqotdan mustahkam institutsional tuzilmaga aylanishi va mintaqaning xalqaro munosabatlar tizimidagi siyosiy subyektliligini oshirishdagi strategik rolini ilmiy tahlil qilish zaruriyati bilan belgilanadi.

**Materailar va usullar.** Maqolaning nazariy va metodologik asosi fanlararo yondashuvga asoslanadi. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari formatining tarixiy bosqichlari va strategik ahamiyati bo'yicha zamonaviy olimlarning asarlarini tadqiq etishda turli usullardan foydalanildi.

**Natijalar.** Bugungi globallashuv va geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatidagi strategik yangilanishlar natijasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat

uchrashuvlari formati mintaqaviy hamkorlikning mutlaqo yangi va dinamik modeliga aylandi.

**Munozara.** Maslahat uchrashuvlari formatining tarixiy bosqichlari. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvlari g'oyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bo'lib, 2018-yilda Qozog'istonning Ostona shahrida birinchi sammit bo'lib o'tganidan buyon muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Bu uchrashuvlar mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi ochiq muloqot, o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan. Quyida maslahat uchrashuvlarining asosiy bosqichlari keltirilgan:

| T/r | Sana              | Joylashuv                   | Asosiy natijalar va ahamiyati                                                                                                        |
|-----|-------------------|-----------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | 2018-yil mart     | Ostona (Qozog'iston)        | Formatga asos solindi. Mintaqaviy muloqotning qayta tiklanishi.                                                                      |
| 2.  | 2019-yil noyabr   | Toshkent (O'zbekiston)      | Muloqot reglamenti qabul qilindi. Hamkorlikning institutsional asoslari shakllandi.                                                  |
| 3.  | 2021-yil avgust   | Avaza (Turkmaniston)        | Pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish va xavfsizlik masalalari muhokamasi.                                                        |
| 4.  | 2022-yil iyul     | Cho'lpon-ota (Qirg'iziston) | "XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish yo'lidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma imzolandi. |
| 5.  | 2023-yil sentyabr | Dushanbe (Tojikiston)       | Ozərbayjon Prezidenti ilk bor faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi. Mintaqalararo aloqalarning kengayishi.                           |
| 6.  | 2024-yil avgust   | Ostona (Qozog'iston)        | "Markaziy Osiyo – 2040" mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasi muhokamasi.                                               |
| 7.  | 2025-yil noyabr   | Toshkent (O'zbekiston)      | Ozərbayjonning formatga to'la huquqli a'zo sifatida qabul qilinishi. Mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichi.                        |

Formatning muntazam o'tkazilishi va uning huquqiy asoslarining mustahkamlanishi mintaqaviy hamkorlikning institutsionalizatsiya jarayonini tezlashtirdi. Bu jarayon Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimida yagona, mustaqil siyosiy subyekt sifatida harakat qilish qobiliyatini oshirdi. Mintaqa davlatlari o'zaro kelishuvlar orqali tashqi geosiyosiy aktyorlarning ta'sirini kamaytirishga intilmoqda. Ozarbayjonning formatga qo'shilishi Maslahat uchrashuvlarining geosiyosiy doirasini Markaziy Osiyodan Janubiy Kavkazgacha kengaytirdi. Bu Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi eng qisqa va samarali transport yo'lagi bo'lgan O'rta koridor (Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'nalishi) salohiyatini to'liq ishga solish uchun strategik asos yaratadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev

ta'kidlaganidek, bu Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasida mustahkam ko'prik barpo etishga xizmat qiladi. Uchrashuvlar savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va energetika sohalarida aniq loyihalarni amalga oshirishga turtki bo'lmoqda. Mintaqaviy savdo hajmining ortishi, sanoat kooperatsiyasining chuqurlashishi va energetika xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kelishuvlar mintaqaviy iqtisodiy sinergiyani kuchaytiradi. Bu esa har bir davlatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formati mintaqaviy hamkorlikning yangi, samarali va institutsional jihatdan mustahkam modelini yaratdi. Uning tarixiy bosqichlari mintaqa davlatlarining o'zaro ishonch va hamjihatlikni tiklashdagi pragmatik yondashuvini aks ettiradi. Ozarbayjonning qo'shilishi esa formatning strategik ahamiyatini transregional darajaga olib chiqib, Markaziy Osiyoning global transport va iqtisodiy tizimdagi rolini sezilarli darajada oshirdi. Kelajakda ushbu format mintaqaviy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda asosiy platforma bo'lib qolishi kutilmoqda.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining VII Maslahat uchrashuvidagi nutqi. (2025, 16-noyabr). *President.uz*.
2. Saydullayev, A. (2025). Markaziy Osiyo integratsiyasida: markaziy osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini roli va ahamiyati. *Scientific aspects and trends in the modern world*.
3. Babajanova, D. (2025). "Markaziy Osiyo hamjamiyati" – millatlarning chinakam hamjihatligi ifodasi. *Cyberleninka*.